

2023- yil yanvar-iyul oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## **SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **472,2 mln. AQSH dollariga** yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **44,7 mln. AQSH dollariga** yoki **10,5 %** ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y.: **472,2** +44,7 %

(2022-y.: **427,5**)



Saldo

2023-y.: - **64,6** (2022 y.: - **95,3**)



#### Eksport

2023-y.: **203,8** +37,7 %

(2022-y.: **166,1**)



Tovarlar: **202,6**



Xizmatlar: **1,2**



#### Import

2023-y.: **268,4** +7,0 %

(2022-y.: **261,4**)



Tovarlar: **268,4**



Xizmatlar: -

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiyligi hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **203,8** mln. AQSH dollariga (**22,7** % ga ko‘paydi) va import hajmi **268,4** mln. AQSH dollariga (**2,7** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **64,6** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

Rossiya	XXR	Afg‘oniston	Qozog‘iston	Turkiya
TSA – 68,9	TSA – 73,9	TSA – 97,3	TSA – 151,9	TSA – 21,6
Eksport: 30,8 Import: 38,1	Eksport: 27,7 Import: 46,2	Eksport: 97,3 Import: 0,0	Eksport: 17,8 Import: 134,0	Eksport: 12,3 Import: 9,3
14,6 %	15,7 %	20,6 %	32,2 %	4,6 %
Koreya Respublikasi	Litva	Fransiya	Tojikiston	Qirg‘iz Respublikasi
TSA – 1,1	TSA – 7,8	TSA – 1,6	TSA – 6,0	TSA – 6,0
Eksport: 0,0 Import: 1,1	Eksport: 0,2 Import: 7,6	Eksport: 0,0 Import: 1,6	Eksport: 5,2 Import: 0,7	Eksport: 1,8 Import: 4,2
0,2 %	1,9 %	0,3 %	1,3 %	1,3 %

Sirdaryo viloyati jahonning mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**14,6 %**), XXRda (**15,7 %**), Afg'onistonda (**20,6 %**), Qozog'istonda (**32,2 %**), Turkiyada (**4,6 %**) va Koreya Respublikasida (**0,2 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilmoxda.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollarri)

Afg'oniston – 97,4



Turkmaniston – 0,2



Turkiya – 21,6



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Turkiya, Pokiston, Tojikiston va Rossiya davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **15** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-iyul, mln. AQSH dollar)*

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya</b>	<b>113,8</b>	<b>61,9</b>	<b>69,0</b>
	<i>Eksport</i> 25,9	33,0	30,8
	<i>Import</i> 87,8	28,9	38,1
<b>XXR</b>	<b>71,3</b>	<b>77,8</b>	<b>73,9</b>
	<i>Eksport</i> 27,2	32,4	27,7
	<i>Import</i> 44,1	45,4	46,2
<b>Germaniya</b>	<b>20,1</b>	<b>5,5</b>	<b>2,8</b>
	<i>Eksport</i> -	0,9	0,1
	<i>Import</i> 20,1	4,6	2,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>99,5</b>	<b>108,6</b>	<b>151,9</b>
	<i>Eksport</i> 12,6	14,0	17,8
	<i>Import</i> 86,9	94,6	134,0
<b>Turkiya</b>	<b>15,3</b>	<b>22,9</b>	<b>21,6</b>
	<i>Eksport</i> 6,7	13,4	12,3
	<i>Import</i> 8,6	9,5	9,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>2,0</b>	<b>7,0</b>	<b>1,1</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i> 2,0	7,0	1,1
<b>Litva</b>	<b>2,2</b>	<b>0,8</b>	<b>7,8</b>
	<i>Eksport</i> -	-	0,2
	<i>Import</i> 2,2	0,8	7,6
<b>Fransiya</b>	<b>0,9</b>	<b>0,9</b>	<b>1,6</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i> 0,9	0,9	1,6

Davomi

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>3,3</b>	<b>5,5</b>	<b>6,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	2,7 0,5	1,6 3,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>49,9</b>	<b>51,6</b>	<b>97,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	49,9 -	50,5 1,1
<b>Belarus</b>	<b>0,6</b>	<b>0,9</b>	<b>1,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,6	0,4 0,5
<b>Hindiston</b>	<b>0,4</b>	<b>1,0</b>	<b>1,8</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,4	0,0 1,0
<b>BAA</b>	<b>0,0</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,0	0,3 0,0
<b>Tojikiston</b>	<b>1,9</b>	<b>9,2</b>	<b>6,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,6 0,3	7,7 1,5
<b>Eron</b>	<b>1,9</b>	<b>4,4</b>	<b>2,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,7 1,2	1,5 2,8
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,2</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,0	0,0 0,1
<b>Italiya</b>	<b>4,7</b>	<b>44,1</b>	<b>4,6</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 4,7	- 44,1
<b>Polsha</b>	<b>0,5</b>	<b>0,7</b>	<b>1,2</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,3 0,2	0,9 0,5
			<b>0,3</b>



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-iyul)

	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	472,2	110,5	100,0
Boyovut t.	36,4	142,9	7,7
Guliston t.	9,1	73,8	1,9
Mirzaobod t.	30,3	97,4	4,3
Oqoltin t.	4,8	71,3	1,0
Sardoba t.	11,5	252,3	2,4
Sayxunobod t.	30,5	103,1	6,5
Sirdaryo t.	141,2	83,5	29,9
Xovos t.	27,0	181,7	5,7
Guliston sh.	38,7	77,3	8,2
Shirin sh.	1,4	76,7	0,3
Yangiyer sh.	151,2	164,5	32,0

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollarlari




Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollarlari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **32,0 %** ulush bilan **151,2 mln. AQSH dollarini**, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,3 %** ulush bilan **1,4 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **49,8 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **21,4 %** ga ko‘paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga ko‘payib va jami TSAdagi ulushi **50,2 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, **235,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **57,4** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **177,9** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 68,9  
Eksport – 30,8  
Import – 38,1



### Qozog'iston

TSA – 151,9  
Eksport – 17,8  
Import – 134,0



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 6,0  
Eksport – 1,8  
Import – 4,2



### Belarus

TSA – 1,0  
Eksport – 0,2  
Import – 0,8



### Tojikiston

TSA – 6,0  
Eksport – 5,2  
Import – 0,7



### Ukraina


TSA – 0,7  
Eksport – 0,7  
Import – 0,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**14,6 %**), Qozog'iston (**32,2 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**1,3 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(yanvar-iyul, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)*



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **227,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **50,6** mln. AQSH dollar, import hajmi esa **177,1** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtaida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **143** taga yetdi va ular tomonidan **203,8** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **22,7 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul, ulushi % da)



Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlatalidi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

*(yanvar-iyul, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarari		O‘zgarish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	166,1	203,8	120,0	122,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	65,8	114,3	98,8	173,8	39,6	56,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	3,9 m.	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,3	4,7	81,0	56,9	5,0	2,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	3,8 m.	0,0	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,9	0,0	0,0	8,0	0,5	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	7,6	6,8	2,8 m.	90,3	4,5	3,4
Sanoat tovarlari	63,4	59,9	151,7	94,6	38,2	29,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4,8	3,6	118,2	75,5	2,9	1,8
Turli xil tayyor buyumlar	14,3	13,0	115,1	91,1	8,6	6,4
Xizmatlar	1,0	1,4	132,6	103,5	0,7	0,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,3 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**29,4 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**56,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**6,4 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	97 669,8	197,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2,6	1,0
Sabzavotlar va mevalar	16 078,5	115,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	19,5	21,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	111,6	558,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	6,6	22,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 302,5	58,2
Qog'oz massasi va makulatura	1 981,7	58,1
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 628,4	83,1
Birlamchi shakldagi bo'limgan plastmassalar	2 468,1	60,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1 675,1	23,6 m.

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	43 354,6	96,1
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 516,4	111,5
Cho'yan va po'lat	741,3	290,7 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	8 026,8	77,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	0,8	87,4
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 189,2	76,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	12 187,7	99,1
Har xil tayyor buyumlar	390,0	41,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	387,2	124,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kirdi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariiga **57,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,2** % ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lган. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **94,8** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyul, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	33 016,8	30 815,1	118,3	93,3	9	6
Turkiya	13 386,8	12 290,5	2,0 m.	91,8	7	8
XXR	32 401,7	27 708,7	148,2	85,5	8	9
Qozog'iston	14 024,1	17 836,5	114,6	127,2	10	3
Afg'oniston	50 495,6	97 315,7	107,9	192,7	11	2
Qirg'iz Respublikasi	1 629,4	1 750,8	50,2	107,4	14	4
Tojikiston	7 737,5	5 236,0	5,3 m.	67,7	4	10
BAA	268,4	68,8	6,1 m.	25,7	3	15
Pokiston	3 300,5	3 063,2	52,6	92,8	13	7
Niderlandiya	42,6	0,0	0,0	0,0	17	16
Eron	1 521,3	1 582,9	53,3	104,0	12	5
Belarus	391,6	239,4	7,6 m.	61,1	1	11
Polsha	213,1	858,6	17,6	4,0 m.	15	1
Ozarbayjon	651,1	184,8	4,9 m.	28,4	5	14
Turkmaniston	661,6	231,5	2,7 m.	34,9	6	13
Buyuk Britaniya	-	97,5	0,0	0,0	16	17
AQSH	126,6	64,8	9,4 m.	51,2	2	12




## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul)

	Hajm mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>203,8</b>	<b>122,7</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	19,5	167,9	9,5
Guliston t.	8,2	73,1	4,0
Mirzaobod t.	12,4	74,3	6,1
Oqoltin t.	2,7	65,3	1,3
Sardoba t.	2,7	127,7	1,3
Sayxunobod t.	18,2	108,8	8,9
<b>Sirdaryo t.</b>	<b>48,1</b>	<b>105,0</b>	<b>23,6</b>
Xovos t.	5,6	57,6	2,7
Guliston sh.	12,0	93,7	5,9
Shirin sh.	0,9	91,1	0,4
Yangiyer sh.	73,5	2,1 m.	36,3

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollarlari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollarlari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **36,3 %** bilan **73,5 mln. AQSH dollarini**, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,4 %** bilan **0,9 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

 Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-iyul oylarida **57,2** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **189,4 %** yoki **27,0** ming tonnaga ko‘paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**11,7 %**), Tojikiston (**2,3 %**), Qozog‘iston (**72,9 %**), hamda XXR (**5,8 %**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2023- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan **16,1 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko‘rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,8 %** ga ko‘paydi va jami eksportdagi ulushi **7,9 %** ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul, qiymati)

Pomidor	Karam	Olma	Piyoz
<b>1 286,9 ming. AQSH dollari</b>	<b>1 433,6 ming. AQSH dollari</b>	<b>52,6 ming. AQSH dollari</b>	<b>3 393,9 ming. AQSH dollari</b>
819,8 tonna	10 965,7 tonna	150,7 tonna	22 822,6 tonna
			
Uzum yangi yoki quritilgan	Grek yong‘og‘i	Bodring	Limon
<b>515,2 ming. AQSH dollari</b>	<b>165,7 ming. AQSH dollari</b>	<b>150,1 ming. AQSH dollari</b>	<b>9,5 ming. AQSH dollari</b>
529,6 tonna	63,7 tonna	199,4 tonna	13,8 tonna
			



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollarri	Ulushi, % da *
 Rossiya	6 712,7	3 045,3	18,9
 Pokiston	977,3	2 576,4	16,0
 Qozog‘iston	41 714,9	5 367,3	33,4
 XXR	3 297,5	2 409,5	15,0
 Afg‘oniston	420,2	241,2	1,5
 Belarus	195,0	239,4	1,5
 Tojikiston	1318,2	544,8	3,4
 Boshqa davlatlar	2 570,7	1 654,6	10,3

\* qiyamat ifodasidan



2023- yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **33,4 %**) tashkil qilmoqda.





## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi **268,4** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,7 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (17,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (46,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (15,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **7,0** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **268,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Min. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>261,4</b>	<b>268,4</b>	<b>103,2</b>	<b>102,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	97,0	125,6	140,8	129,3	37,7	46,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,6	8,9	129,8	77,1	3,9	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,6	18,1	10,5	2,7 m.	2,1	6,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	6,8	13,0	6,3 m.	0,3	2,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	43,8	41,7	171,1	95,3	16,3	15,5
Sanoat tovarlari	15,0	15,1	90,4	101,0	5,5	5,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	82,6	46,2	122,6	56,0	32,9	17,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,7	4,2	77,1	111,9	1,5	1,6
Boshqa tovarlar	0,0	1,8	-	0,0	0,0	0,8



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul)


XSST bo'lumi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	113 412,6	140,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	33,6	14,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	5 594,9	80,1
Tirk hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 507,0	102,4
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	3 444,1	85,5
Probka va yog'och-taxtalar	3 068,1	90,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 892,4	3,7 m.
Ko'mir, koks va briketlar	14 231,2	2,5 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6 822,6	6,3 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	21,2	4,2 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	957,9	73,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	21 468,9	92,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 390,9	95,6
Bo'yaydigan va terini oshlovch moddalar va bo'yoqlar	9 606,3	127,8

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dolları	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	3 253,9	112,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 340,7	182,6
Ruda bo'Imagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3 103,9	183,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	4 137,9	56,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	35,0	3,5 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	31 982,9	48,0
Sanoat uchun maxsus bo'Imagan mashinalar va ularning detallari	8 377,3	84,7
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 614,8	110,6
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 066,1	162,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	824,4	69,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	926,4	178,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	144,5	31,7



2023- yil yanvar-iyul natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **66,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **28,3 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollarri)



2023- yil yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyati **40** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Fransiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyul, % da)





**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-iyul, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	4 616,6	2 703,5	21,9	58,6	16	14
Rossiya	28 882,2	38 136,3	28,5	132,0	15	9
XXR	45 408,1	46 174,7	107,2	101,7	12	11
Qozog'iston	95 822,5	134 048,5	131,7	139,9	10	7
Turkiya	7 977,3	9 292,2	93,3	98,0	13	12
Koreya Respublikasi	6 969,2	1 104,9	6,5 m.	15,9	3	18
Litva	819,4	7651,0	4,4 m.	9,3 m.	6	2
Fransiya	854,0	1 639,7	170,8	191,9	8	4
Niderlandiya	840,1	2 112,3	154,9	2,5 m.	9	3
Turkmaniston	4 087,7	0,0	130,6	0,0	11	20
Hindiston	957,6	1 764,9	3,7 m.	184,3	7	5
Belarus	494,4	762,0	77,5	154,1	14	6
Italiya	43 992,8	4 564,9	48,7 m.	10,4	1	19
Buyuk Britaniya	4,5	94,3	10,1	21,1 m.	17	1
Eron	2 848,8	878,0	4,6 m.	30,8	5	17
Polsha	469,1	370,9	6,7 m.	79,0	2	13
AQSH	34,2	45,5	0,2	132,9	19	8
Estoniya	260,6	80,3	-	30,8	20	16
Avstrya	1 064,4	407,4	9,3	38,3	18	15
Qirg'iz Respublikasi	3 881,0	4 235,5	6,0 m.	109,1	4	10



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-iyul)

	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	268,4	102,7	100,0
Boyovut t.	16,9	122,1	6,3
Guliston t.	0,9	80,8	0,3
Mirzaobod t.	8,0	189,1	3,0
Oqoltin t.	2,1	81,2	0,8
Sardoba t.	8,8	3,6 m.	3,3
Sayxunobod t.	12,3	95,7	4,6
Sirdaryo t.	93,1	75,5	34,7
Xovos t.	21,4	4,1 m.	8,0
Guliston sh.	26,7	71,7	9,8
Shirin sh.	0,5	59,5	0,2
Yangiyer sh.	77,7	134,3	29,0



Viloyat import tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **34,7 %** bilan **93,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.**



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **46,2** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **44,1** % ga kamaydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **17,2** % ni tashkil qildi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyul)




2023- yil yanvar-iyul oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **36,3** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Fransiya — **1,0** mln. AQSH dollari (**2,1** %), XXR — **21,8** mln. AQSH dollari (**47,1** %) va Turkiya — **7,0** mln. AQSH dollari (**15,2** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **15,1** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,0 %** ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **5,6 %** ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

6,2 mln. AQSH doll.  
ulushi – **40,8 %**



Rossiya Federasiyasi

4,8 mln. AQSH doll.  
ulushi – **32,0 %**



XXR

2,5 mln. AQSH doll.  
ulushi – **16,3 %**



Qozog`iston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (**4,1** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**2,3** mln. AQSH dollari), ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**3,1** mln. AQSH dollari), rangli metal (**0,6** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.